

Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti tadqiqotchilari tomonidan bino va inshootlarning zilzilabardoshlilik darajasi o'rganilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 30 -iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi PQ-4794 sonli qarorining 7-bandiga asosan Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti qoshida "Bino va inshootlarni eksperimental tadqiq qilish ilmiy-texnik laboratoriyasi" tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bino va inshootlarning seysmik mustahkamligini baholash hamda elektron texnik pasportlarni shakllantirish tizimini joriy etish to'g'risida" gi qaroriga asosan 2021-yil 4-6-dekabr kunlari Toshkent shahridagi Turin politehnika universiteti professor-o'qituvchilari, tadqiqotchi va mutaxassislari tomonidan Andijon shahridagi Alisher Navoiy shox ko'chasida joylashgan 13 qavatli binoning seysmik mustahkamligini baholash maqsadida maxsus uskunalar yordamida kerakli ma'lumotlar yig'ildi. Ushbu jarayonda binoning raqamli modelini hosil qilish uchun Germaniyada ishlab chiqarilgan Faro Focus M70 lazer skaneridan foydalanildi. Ushbu qurilma yordamida binoning uch o'lchamli ma'lumotlari olindi. Olingan ma'lumotlar yordamida maxsus kompyuter dasturi (Lira SAPR) orqali binoning raqamli modeli yaratiladi va unga keraklik yuklar va parametrlar biriktirilgan xolda zilzilabardoshlilikni tahlil qilinadi.

Binoning tashqi tebranishlarga munosabatini aniqlash uchun har to'rt qavatga uchta o'q bo'yicha seysmik tebranishlarni o'lchovchi akselerometerlar o'rnatib chiqildi. Bu usul bilan binoning xususiy tebranishi va tashqi dinamik tebranishlarga munosabatini o'rganish maqsadida ma'lumotlar yig'ib olindi. Maxsus uskunalar (Metall detektor, Hummer Schimdt, Profometer) yordamida bino asoslarida ishlatilgan armatura qalinligi, beton asoslar qalinligi, beton markasi kabi ma'lumotlar yig'ib olindi.

Hozirda yig'ib olingan ma'lumotlar Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti qoshida tashkil etilgan "Bino va inshootlarni eksperimental tadqiq qilish ilmiy-texnik laboratoriyasi" professori va tadqiqotchilari tomonidan tahlil qilinib o'rganilmoqda.